

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№6

2025
IYUN



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCESS

ULRICH'S WEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛЯЛ

TDIU
TOŠKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
1931



SIMON KARIMOV NOMIDASI
TOŠKENT DAVLAT TEKHNIKA UNIVERSITETI
1955

TOŠKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI
1955

TJU
TOSHKENT DAVLAT
ARHITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA
UNIVERSITETI
1991

TJU
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA
UNIVERSITETI
1991



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan	12
Isakov Janabay Yakypbayevich	
Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash.....	18
Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B	
Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market	23
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova	
O'zbekistonda eksportni sug'ortalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari	29
D.E.Qarshiev	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	35
Islomova Dilrabo Salomovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli	40
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития	47
Алиев Аброр Мураткулович	
The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration	52
Dilorom Mutalova	
Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli	57
Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li	
Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar.....	62
Jalilov Ahmadbek Ikromjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida	66
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing	73
Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna	
Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties	80
Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	85
Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo'jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish.....	89
Fazilat Egamberganova Shuhratovna	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish	93
Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari	98
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	
Mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari	104
Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich	
Sirdaryo viloyatida investitsion faoliytkni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi	110
Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi	



Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	115
Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari xususida	118
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
Nodavlat oliy ta'lif tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari	125
Yaqubova Nodira Olim qizi	
O'zbekistonda to'qimachilik eko-mahsulotlari bozorining rivojlanish imkoniyatlari	130
Nosirova Charos	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni	135
Asadullina Nailiya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Axoli daromadlarining turmush farovonligiga ta'siri	142
Berdibekov A.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitda ta'lif xizmati sifatini oshirishni ekonometrik modellashtirish usullari	148
Axmedova Barno Abdiyevna	
Jahon mamlakatlarida chakana savdoni boshqarishning o'ziga xosligi va unda strategik menejment tizimi	151
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
Kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	156
Amonov Mehriddin Oromiddinovich	
Geologiya korxonalarining investitsion samaradorligini oshirish yo'llari	163
O'tamurodova Surayyo SHokirjon qizi	
Temir yo'l transportini rivojlantirishdagi xorij tajribasi	169
Nasrullahov Nurbek Baxtiyarovich	
Hududlar iqtisodiyoti agrar sektori investitsion faolligining ko'rsatkichlar tizimi va ularning xususiyatlari	174
S.J. Yangiboev	
Hududlarning soliq salohiyatini oshirishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari	181
Sharipov Narzullo G'ulomovich	

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS



HUDUDLARNING SOLIQ SALOHIYATINI OSHIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Sharipov Narzullo G'ulomovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasining katta o'qituvchisi



ORCID: 0009-0008-3875-3821

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi hududlarining soliq salohiyatini oshirish jarayonida mavjud bo'lgan muammolar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy yechimlar ishlab chiqilgan. Hududi soliq salohiyati – bu mahalliy budgetlarning daromad bazasini mustahkamlash, fiskal mustaqillikni ta'minlash hamda makroiqtisodiy barqarorlikni yuksaltirishning muhim omillardidan biri sifatida qaraladi. Maqolada soliq bazasining yetarlicha shakllanmaganligi, norasmiy iqtisodiyotning keng qamrovi, soliq ma'murchiligidagi tizimli kamchiliklar, iqtisodiy infratuzilmaning rivojlanmaganligi va investitsion jozibaning past darajada ekanligi kabi asosiy muammolar oshib berilgan. Shuningdek, maqolada ilg'or xorijiy tajribalar asosida hududi soliq imkoniyatlarini aniqlash, ularni to'liq safarbar qilish va fiskal siyosatni hududlar kesimida optimallashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Muallif soliq ma'lumotlar bazasini raqamlashtirish, hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, soliq madaniyatini oshirish va budgetlararo munosabatlarni takomillashtirish orqali soliq salohiyatini rivojlantirish mumkinligini asoslab bergen. Maqola natijalari davlat soliq siyosatini mahalliy darajada takomillashtirish, hududlar o'tasida iqtisodiy tenglikni ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: soliq, soliq salohiyati, soliq bazasi, fiskal siyosat, soliq ma'murchiligi, byudjet daromadlari, mahalliy byudjet, soliq siyosati, hududi rivojlanish, iqtisodiy barqarorlik, investitsion joziba, norasmiy iqtisodiyot, soliq yuklamasi, iqtisodiy infratuzilma, budgetlararo munosabatlar, soliq ma'lumotlar bazasi.

Abstract: This article analyzes the existing challenges in enhancing the tax potential of the regions of the Republic of Uzbekistan and proposes practical solutions for their resolution. Regional tax potential is considered one of the key factors in strengthening the revenue base of local budgets, ensuring fiscal independence, and promoting macroeconomic stability. The article identifies major issues such as the insufficient development of the tax base, the extensive scope of the informal economy, systemic deficiencies in tax administration, underdeveloped economic infrastructure, and a low level of investment attractiveness. Furthermore, the article puts forward proposals based on advanced international practices for identifying territorial tax capacities, fully mobilizing them, and optimizing fiscal policy across regional dimensions. The author substantiates that tax potential can be enhanced through digitization of tax databases, support for small businesses and private entrepreneurship at the regional level, promotion of tax culture, and improvement of inter-budgetary relations. The findings of the article may contribute to the improvement of national tax policy at the local level, promotion of economic equity among regions, and reinforcement of socio-economic stability.

Keywords: Tax, tax potential, tax base, fiscal policy, tax administration, budget revenues, local budget, tax policy, territorial development, economic stability, investment attractiveness, informal economy, tax burden, economic infrastructure, inter-budgetary relations, tax database.



Аннотация: В данной статье проанализированы существующие проблемы в процессе повышения налогового потенциала регионов Республики Узбекистан и разработаны практические решения по их преодолению. Территориальный налоговый потенциал рассматривается как один из важнейших факторов укрепления доходной базы местных бюджетов, обеспечения фискальной независимости и повышения макроэкономической стабильности. В статье раскрываются такие основные проблемы, как недостаточное формирование налоговой базы, широкий охват неформальной экономики, системные недостатки налогового администрирования, неразвитость экономической инфраструктуры и низкий уровень инвестиционной привлекательности. Кроме того, на основе передового зарубежного опыта в статье сформулированы предложения по определению территориальных налоговых возможностей, их полной мобилизации и оптимизации фискальной политики на региональном уровне. Автор обосновывает возможность развития налогового потенциала за счёт цифровизации налоговой базы, поддержки малого бизнеса и частного предпринимательства в регионах, повышения налоговой культуры и совершенствования межбюджетных отношений. Результаты исследования могут способствовать улучшению государственной налоговой политики на местном уровне, обеспечению экономического равенства между регионами и укреплению социально-экономической стабильности.

Ключевые слова: налог, налоговый потенциал, налоговая база, фискальная политика, налоговое администрирование, бюджетные доходы, местный бюджет, налоговая политика, территориальное развитие, экономическая стабильность, инвестиционная привлекательность, неформальная экономика, налоговая нагрузка, экономическая инфраструктура, межбюджетные отношения, налоговая база данных.

KIRISH

Soliq siyosati har qanday davlatning moliyaviy asoslarini shakllantiruvchi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Xususan, bozor munosabatlari sharoitida fiskal barqarorlikni ta'minlashda soliq tushumlari asosiy moliyaviy manba sifatida alohida o'r'in tutadi. Mamlakatning har bir hududi o'zining iqtisodiy, demografik va institutsional imkoniyatlariga ko'ra farqlanadi, bu esa hududiy soliq salohiyatini aniqlash, baholash va rivojlantirish bo'yicha izchil yondashuvni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda soliq tizimini modernizatsiya qilish yo'lida muhim qadamlar qo'yildi. Jumladan, mahalliy byudjetlar mustaqilligi oshirilib, fiskal markazlashuv darajasi bosqichma-bosqich kamaytirilmoqda. Ushbu yondashuv mahalliy darajadagi moliyaviy mustahkamlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda budget siyosatini hududiy ehtiyojlarga moslashtirish imkonini bermoqda.

Mazkur jarayonda hududlarning iqtisodiy imkoniyatlarini to'liq ishga solish, soliqqa tortish bazasini kengaytirish va mavjud infratuzilmani samarali safarbar etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida ko'rilmoxda. Mayjud salohiyatdan to'liq foydalanish uchun har bir hududda sanoat, xizmatlar sohasi va qishloq xo'jaligini rivojlantirish orqali iqtisodiy faollilikni oshirish zarur. Ayniqsa, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish, mahalliy xomashyo bazasiga asoslangan loyihalarini qo'llab-quvvatlash orqali yangi subyektlar shakllanishiga zamin yaratiladi.

Shuningdek, aholining bandlik darajasini oshirish va norasmiy ishchi kuchini rasmiy sektorga integratsiya qilish orqali soliq bazasini kengaytirish mumkin. Bu borada hududiy bandlik dasturlari, kichik biznesni rasmiylashtirishni rag'batlantiruvchi mexanizmlar hamda moliyaviy yordam vositalarining samarali uyg'unlashuvi muhim o'r'in tutadi.

Soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirish borasida ham mavjud salohiyatni yanada kuchaytirish mumkin. Soliq to'lovchilarning to'liq ro'yxatini shakllantirish, ularning faoliyatini tizimli ravishda monitoring qilish va soliq organlari faoliyatini raqamlashtirish orqali shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlashga erishiladi. Bunda sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan tahlil tizimlari va real vaqt rejimidagi monitoring mexanizmlari qo'llanishi istiqbolli yo'nalishlardan biridir.

Soliq madaniyatini yuksaltirish va huquqiy savodxonlikni oshirish orqali fuqarolarning ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytirish mumkin. Bu borada uzlusiz targ'ibot-tashviquot ishlarini olib borish, ta'llim tizimi bilan integratsiyalashgan ma'lumot kampaniyalari, interaktiv platformalarda trening va konsultatsiyalar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Hududlarning soliq salohiyatini oshirish bo'yicha strategik yondashuv quyidagi ustuvorliklarni o'z ichiga oladi: iqtisodiy resurslarni to'liq safarbar qilish, investitsions jozibadorlikni oshirish, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, byudjet tushumlarini ko'paytirish va moliyaviy muvozanatni ta'minlash. Ushbu jarayonda mahalliy hokimiyatlar va soliq organlari o'rtaсидаги координатсиya va mas'uliyatni kuchaytirish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xalqaro tajriba asosida qaraganda, hududiy fiskal salohiyatni oshirishda raqamli texnologiyalar, masofaviy xizmatlar va mobil ilovalar orqali soliqlarni to'lash tizimlari sezilarli natijalar bermoqda. O'zbekistonda ham bu borada ijobjiy natijalar kuzatilmoqda. Endilikda bu yechimlarni butun respublika bo'ylab bir xil darajada va tizimli joriy etish orqali soliq siyosatining samaradorligini oshirish kutilmoqda.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududlarning soliq salohiyati bo'yicha ko'plab iqtisodchilar va tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, ularning fikrlari hududiy soliq siyosatini takomillashtirish, soliq tushumlarini ko'paytirish va yashirin iqtisodiyotning oldini olishda muhim nazariy asos yaratadi. Xususan, soliqqa tortish bazasini chuqur tahlil qilish, soliq to'lovchilarning faolligini oshirish, raqamli nazorat tizimlarini joriy etish va xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish orqali soliq salohiyatini oshirish imkoniyatlari mavjud.

Masalan, A. Vahobov va A. Jo'raev soliqlar va soliqqa tortish tizimi bo'yicha nazariy asoslarni ishlab chiqqan asarlarida hududiy soliq salohiyatini aniqlashda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining hududiy joylashuvi, iqtisodiy faoliyat darajasi va soliqqa tortish mexanizmlarining to'g'ri ishlashi muhim omillar ekanligini ta'kidlaydi. Ularning fikriga ko'ra, mahalliy soliq bazasining to'liq safarbar etilmasligi byudjet tushumlarining yetarli bo'lmasligiga olib keladi, bu esa davlatning hududiy siyosatiga bevosita salbiy ta'sir qiladi [4].

U. X. Normurzaev soliq imtiyozlarining samaradorligi bilan bog'liq ilmiy izlanishlarida soliq salohiyatining to'liq ro'yobga chiqmasligiga sabab bo'layotgan holatlardan biri sifatida imtiyozlar noto'g'ri va izchil berilmasligini ko'rsatadi. Uning fikricha, "Soliq imtiyozlar huudular kesimida iqtisodiy rag'batlantirish omili bo'lishi kerak bo'lsa-da, amaliyotda u soliq tushumlarining kamayishiga olib kelmoqda" [5].

S. S. Azimov kameral soliq tekshiruvlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarida tashqi axborot manbalaridan foydalanish orqali soliq salohiyatining real holatini aniqlash imkoniyati ortishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, "Kameral tahlil orqali iqtisodiy faoliyat yuritayotgan subyektlar daromadlarini aniq baholash va yashirin soliq manbalarini aniqlash mumkin" [6].

R. R. Ergashev norasmiy iqtisodiyotning soliq tizimiga ta'siri haqida fikr yuritar ekan, hududiy soliq salohiyatini oshirish uchun yashirin iqtisodiy faoliyatni qonuniy maydonga olib chiqish zarurligini aytadi. Unga ko'ra, "Norasmiy sektorni rasmiylashtirish orqali soliq bazasini kengaytirish va budget tushumlarini ko'paytirish mumkin" [7].

I. M. Niyazmetov soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali butun soliq tizimining barqarorligini ta'minlash mumkinligini ta'kidlaydi. U o'z tadqiqotlarida mahalliy darajadagi iqtisodiy indikatorlarga asoslangan, differential soliqqa tortish mexanizmlarini joriy etish zarurligini ilgari suradi [8].

B. A. Normatov esa soliq tekshiruvlarining huquqiy asoslarini mustahkamlash orqali hududlarda soliq intizomini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, "Qonuniy asosda olib borilgan soliq nazorati soliq to'lovchilar faoliyatini shaffoflashtiradi va byudjet daromadlarini oshirishga xizmat qiladi" [9].

S. K. Xudoyqulov soliq tushumlarini prognoz qilish bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida har bir hudud uchun iqtisodiy rivojlanish sur'atlari va demografik o'zgarishlarga asoslangan prognoz metodologiyasi ishlab chiqilishi lozimligini ta'kidlaydi. Bu esa soliq siyosatini samarali rejorashtirish imkonini beradi [10].

F. I. Isaev soliq tahlili metodologiyasi orqali huududlarda mayjud resurslardan foydalanish darajasi, soliq to'lovchilarning to'lov intizomi va iqtisodiy sektorlarning soliqqa jalb etilish ko'rsatkichlarini chuqur tahlil qilish zarurligini aytadi [11].

A. X. Islamkulov esa budgetlararo mutanosiblikni ta'minlashda hududlarning soliq salohiyati asosiy o'rinnutishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, "Mahalliy soliq manbalarining to'liq safarbar qilinishi va ularni adolatli taqsimlash orqali moliyaviy tenglikka erishish mumkin" [13].

Y. S. Yefremova esa o'z tadqiqotida qarzdarlikni qisqartirish orqali soliq salohiyatini saqlab qolish masalsiga urg'u beradi. Unga ko'ra, "Soliq to'lovchilarning debitor qarzlarini qonuniy mexanizmlar orqali byudjet foydasiga undirish soliq tushumlarining barqarorligini ta'minlaydi" [14].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli tahlil, soliq tushumlari va hududiy iqtisodiy salohiyat o'tasidagi bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan yondashuvlar asos qilib olindi. Asosiy e'tibor hududlarning mavjud soliq salohiyati, uning shakllanishiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillar, shuningdek, mavjud resurslardan foydalanish darajasini baholashga qaratildi. Soliq siyosati samaradorligini aniqlashda statistik ko'rsatkichlar tahlili va soliq ma'lumotlarining huudular kesimidagi dinamikasi asosida tahlili usullar qo'llanildi.

Tadqiqot davomida davlat byudjetining daromad qismini shakllantiruvchi omillar va ularning hududiy tafovutlari chuqur o'rganildi. Bu jarayonda raqamlashtirish darajasi, soliq ma'murchiligi, tadbirkorlik faoliyati va norasmiy iqtisodiyot kabi omillar alohida e'tiborga olindi. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalar o'rganilib, ularni milliy sharoitlarga moslashtirish imkoniyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalarini huudular o'tasidagi iqtisodiy nomutanosiblikni kamaytirish, soliq salohiyatidan to'laqonli foydalanish va fiskal barqarorlikka erishish yo'lida amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qildi.




TAHLIL VA NATIJALAR

Soliq tushumlari davlat byudjetining asosiy manbai bo'lib, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Soliqlar orqali davlat o'z zimmasidagi ijtimoiy xizmatlar — ya'ni sog'liqni saqlash, ta'lim, infratuzilma, xavfsizlik kabi sohalarni moliyalashtiradi. Shu bilan birga, soliq tushumlari miqdori mamlakat iqtisodiyotining holatini, tadbirkorlik muhitining faolligini va aholining daromasini ham aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, biznes muhitini yaxshilash, raqamli soliq tizimlarini joriy etish kabi chora-tadbirlar soliq tushumlarining ortishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, soliq ma'muriyatichiligining takomillashuvi, yashirin iqtisodiyotning qisqarishi va norasmiy sektorni rasmiylashtirishga qaratilgan harakatlar natijasida soliq tushumlarida yildan-yilga o'sish kuzatilmoqda.

Quyidagi rasmida 2021–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan ta'minlangan soliq tushumlari miqdori ko'rsatilgan. Ushbu raqamlar yilma-yil mamlakat iqtisodiyoti hajmi va soliq boshqaruvi samaradorligining qanday o'zgarayotganini aniq ifodalaydi. Har bir yildagi o'sish — bu iqtisodiy faoliyk, soliqqa tortiluvchi subyektlar soni, soliq bazasining kengayishi va fiskal siyosatdagi ijobjiy natijalarning yaqqol ko'rinishidir (1-rasm).



1-rasm: O'zbekiston Respublikasida soliq tushumlari, 2021–2024-yillar¹

Soliq tushumlari davlat byudjetining asosiy manbai bo'lib, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Soliqlar orqali davlat o'z zimmasidagi ijtimoiy xizmatlar, ya'ni sog'liqni saqlash, ta'lim, infratuzilma, xavfsizlik kabi sohalarni moliyalashtiradi. Shu bilan birga, soliq tushumlari miqdori mamlakat iqtisodiyotining holatini, tadbirkorlik muhitining faolligini va aholining daromasini ham aks ettiradi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, biznes muhitini yaxshilash, raqamli soliq tizimlarini joriy etish kabi chora-tadbirlar soliq tushumlarining ortishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, soliq ma'muriyatichiligining takomillashuvi, yashirin iqtisodiyotning qisqarishi va norasmiy sektorni rasmiylashtirishga qaratilgan harakatlar natijasida soliq tushumlarida yildan-yilga o'sish kuzatilmoqda.

Yuqoridaagi rasmida 2021–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan ta'minlangan soliq tushumlari miqdori ko'rsatilgan. Ushbu raqamlar yilma-yil mamlakat iqtisodiyoti hajmi va soliq boshqaruvi samaradorligining qanday o'zgarayotganini aniq ifodalaydi. Har bir yildagi o'sish — bu iqtisodiy faoliyk, soliqqa tortiluvchi subyektlar soni, soliq bazasining kengayishi va fiskal siyosatdagi ijobjiy natijalarning yaqqol ko'rinishidir (1-rasm).

¹ <http://www.soliq.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti


1-jadval: Hududlarning soliq salohiyatini oshirishdagi muammolar va ularning yechimlari²

№	Muammolar	Yechimlar
1	Norasmiy iqtisodiyotning yuqori ulushi	Yashirin faoliyatni rasmiylashtirishga rag'batlar berish, monitoring va nazoratni kuchaytirish
2	Soliq to'lovchilarni ro'yxatga olishda aniqlikning yo'qligi	Raqamli identifikasiya va yagona elektron reyestr yaratish
3	Soliq ma'muriyatichiligi zaifligi	Soliq xodimlarining malakasini oshirish, texnologik infratuzilmani kuchaytirish
4	Soliqqa tortish bazasining torligi	Yangi iqtisodiy tarmoqlarni rivojlantirish, servis va xizmatlar sohasini kengaytirish
5	Soliq to'lovchilarning huquqiy savodxonligi pastligi	Doimiy ravishda axborot-targ'ibot va tushuntirish kampaniyalarini o'tkazish
6	Investitsiyalarning sustligi	Mahalliy infratuzilmani yaxshilash, soliq imtiyozlarini tahliliy asosda taqdim etish
7	Soliq imtiyozlarining samarasiz qo'llanilishi	Imtiyozlarni maqsadli, vaqtinchalik va natijadorlik asosida ajratish
8	Hududiy darajadagi iqtisodiy faoliyit pastligi	Tadbirkorlikni rag'batlantirish dasturlarini amalga oshirish
9	Raqamli texnologiyalarning yetarlicha joriy etilmagani	Elektron soliqqa tortish tizimlarini to'liq joriy qilish, ERP va CRM tizimlar bilan bog'lash
10	Soliq tushumlarining prognozlanishi zaifligi	Prognozlash metodikalarini ishlab chiqish, sun'iy intellekt asosida tahlillar kiritish

Yuqorida jadvalda berilgan ma'lumotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, soliq salohiyatini oshirish faqat soliqqa tortish stavkalarini ko'paytirish orqali emas, balki soliqqa jalb etiladigan subyektlar soni va faolligini oshirish, shaffoflikni ta'minlash, iqtisodiy muhitni yaxshilash orqali amalga oshiriladi.

Birinchi muammo — norasmiy iqtisodiyotning keng tarqalganligi bo'lib, bu mamlakatda hanuz ko'plab iqtisodiy faoliyat turlari rasmiy statistika va soliqqa tortish doirasidan tashqarida ekanligini ko'rsatadi. Bunday holatlar ko'pincha nazorat mexanizmlarining sustligi yoki huquqiy ongning pastligidan kelib chiqadi. Mazkur muammoni bartaraf etish uchun nazorat tizimini kuchaytirish bilan birga, tadbirkorlarga faoliyatni rasmiylashtirishning foydalı jihatlarini tushuntirish lozim.

Yana bir muhim muammo — soliqqa tortish bazasining torligi. Bu holat ayniqsa iqtisodiy faoliyit past bo'lgan tuman va chekka hududlarda yaqqol sezildi. Uni bartaraf etish uchun hududiy investitsiya muhitini yaxshilash, yangi iqtisodiy yo'nalishlarni rivojlantirish, innovatsion va xizmat ko'rsatish tarmoqlariga alohida e'tibor qaratish zarur.

Soliq to'lovchilarning huquqiy savodxonligining pastligi ham salohiyatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Aholida soliqqa to'lash ijtimoiy mas'uliyat ekani haqidagi tushunchani shakllantirish uchun ommaviy axborot vositalari, o'quv dasturlari va targ'ibot materiallaridan tizimli va samarali foydalanish lozim.

Investitsiyalarning sustligi esa hududiy iqtisodiy faoliyitni cheklaydi. Infratuzilma holatini yaxshilash, xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar uchun kafolatlari va qulay shart-sharoitlar yaratish orqali soliqqa tortiladigan obyektlar sonini ko'paytirish mumkin. Shu bilan birga, soliq imtiyozlarining samaradorligi doimiy tahlil qilinishi, ular maqsadli, vaqtinchalik va iqtisodiy samaradorlik asosida taqdim etilishi zarur.

Biz jadvalda ko'rsatib o'tgan yechimlar asosan raqamlashtirishga tayanadi. Bunda elektron tizimlar, ERP (resurslarni boshqarish tizimi) va CRM (mijozlar bilan ishslash tizimi) orqali soliqqa tortiladigan subyektlarni aniqlash, ularning faoliyatini monitoring qilish va real vaqt rejimida ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyati soliq ma'muriyatichilagini sezilarli darajada kuchaytiradi. Soliq tushumlarini prognozlashda ham sun'iy intellekt va katta hajmdagi ma'lumotlar tahliliga asoslangan yondashuvlar orqali aniqlik kiritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, har bir hudud soliq salohiyatini oshirish uchun o'zining iqtisodiy imkoniyatlarini chuqur tahlil qilishi, mavjud muammolarni aniqlab, mahalliy sharoitlarga mos va ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni amalga oshirishi zarur. Bu esa nafaqat fiskal mustaqillikka, balki butun respublika miqyosida iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, hududlarning soliq salohiyatini oshirish masalasi bugungi kunda davlat fiskal siyosatining eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylangan. O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, hududiy boshqaruv tizimining bosqichma-bosqich mustahkamlanishi, mahalliy byudjetlar-



ning mustaqillik darajasining oshib borayotgani fonida har bir hududning o'z moliyaviy salohiyatiga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, mamlakat hududlarida soliq salohiyatining to'liq ochilmasligiga iqtisodiy, ijtimoiy, ma'muriy va institutsiyal omillar sabab bo'lmoqda. Aynan shu holatlar hududlar o'tasida moliyaviy nomutanosiblikni yuzaga keltirib, markaziy byudjetga qaramlikni kuchaytiradi.

Hududiy soliq salohiyatini oshirish uchun, eng avvalo, mavjud imkoniyatlarni va resurslardan samarali foydalanish lozim. Soliq bazasi yetarlichka keng bo'lgan hududlarda ham soliqqa tortiladigan obyektlarni to'liq aniqlanmagan yoki noto'g'ri baholangan. Shu sababli har bir hudud bo'yicha soliq bazasining chuqur tahlilini amalga oshirib, ishlab chiqarish quvvatlari, xizmat ko'rsatish sohasi, turizm va boshqa iqtisodiy segmentlar hisobga olingan holda yangilangan soliq manbalarining elektron reyestreni yaratish zarur. Bu nafaqat mavjud resurslarni aniqlashga, balki ulardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, hududiy darajada yashirin iqtisodiyotni kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim. Bu borada soliq ma'muriyatichilagini raqamlashtirish, soliq to'lovchilar faoliyatini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi texnologiyalarni keng joriy etish zarur. Masalan, elektron hisob-faktura tizimi, onlayn kassa apparatlari va soliq axborot tizimlarining integratsiyasi orqali soliq nazorati kuchayadi va noqonuniy faoliyat kamayadi. Natijada, soliq tushumlari hajmi ortadi.

Bundan tashqari, mahalliy hokimiyat organlari va soliq xizmatlari o'tasidagi hamkorlikni kuchaytirish ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Hududiy hokimiyatlar o'z hududining iqtisodiy holatini, potensial soliq to'lovchilarini va faoliyat sohalarini chuqur bilgan holda soliq organlariga amaliy ko'mak ko'rsatishi lozim. Bu esa hududiy fiskal salohiyatning oshishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, ularning soliqlarga nisbatan ongli munosabatini shakllantirish maqsadida axborot-targ'ibot ishlarini tizimli asosda olib borish ham yuqori samaradorlikka erishishni ta'minlaydi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, mahalliy soliq tushumlarini oshirishda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash hamda ularni rasmiylashtirish jarayonlarini soddalashtirish muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston sharoitida ham kichik biznes subyektlarini soliqqa jalb qilishni rag'batlantirish, ularga soliq imtiyozlarini berish orqali iqtisodiy faoliylikni oshirish va natijada soliq bazasini kengaytirish mumkin. Ayniqsa, soliqdan bo'yin tovlayotgan faoliyat turlarini aniqlash, ularga nisbatan huquqiy choralar ko'rish bilan birga, bu subyektlarni rasmiy faoliyatga jalb qilish orqali ijobjiy motivatsiya berilishi zarur.

Yuqoridagilarga asoslanib, quyidagi takliflar ilgari surildi:

- Hududiy soliq salohiyatini baholash uchun yagona mezonlar asosida metodika ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish;
- Soliq bazasini aniqlash va kengaytirish maqsadida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha elektron monitoring tizimlarini yaratish;
- Mahalliy darajada yashirin iqtisodiyotni qisqartirish uchun raqamli nazorat vositalarini joriy etish;
- Soliq to'lovchilarning ongini oshirish va huquqiy madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan doimiy targ'ibot ishlarini olib borish;
- Mahalliy boshqaruv va soliq organlari o'tasida ma'lumot almashinuvini yaxshilash va funksional hamkorlikni kuchaytirish;
- Xalqaro tajribani o'rganish asosida mahalliy sharoitga moslashtirilgan soliq siyosatini ishlab chiqish va uni bosqichma-bosqich amalga oshirish.

Umumiy qilib aytganda, hududlarning soliq salohiyatini oshirish bo'yicha tizimli va kompleks yondashuv zarur. Bu nafaqat davlat byudjeti barqarorligini ta'minlaydi, balki hududiy iqtisodiy rivojlanish, yangi ish o'rinalining yaratilishi, tadbirkorlik faolligining ortishi kabi ijobjiy natijalarga olib keladi. Soliq salohiyatining to'liq ishga solinishi O'zbekistonning barcha hududlari iqtisodiy o'sishiga mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: "Adolat", 2020
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6098-sun "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkilchiligi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to'grisida"gi PF-5468-sun Farmoni
4. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik. – T.: "Sharq" nashriyoti – 2009. 268 bet.
5. Normurzaev U.X. Soliq imtiyozlarining samaradorligi: nazariya, metodologiya va amaliyat. Diss. avtoreferati. – T., 2022.
6. Azimov S.S. Kameral soliq tekshiruvini tashkil etishda tashqi manba ma'lumotlaridan samarali foydalanish. PhD disertatsiyasi avtoreferati. 2022. 126 b.
7. Ergashev R.R. Soliq siyosatining norasmiy iqtisodiyot ko'lamin qisqartirishga qaratilgan mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati 2022 y.



8. Niyazmetov I.M. Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimini barqarorligini ta'minlash: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Toshkent, 2018. -230 b.
9. Normatov B.A., "O'zbekiston Respublikasida soliq tekshiruvlarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish" mavzusidagi (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent-2020.
10. Xudoykulov S.K. Soliq tushumlarini prognoz qilish metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. diss. avtoreferati. T., 2019.
11. Isaev F.I. Soliq tahlili metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2022. 242 b.
12. U.X.Normurzaev Soliq imtiyozlarining samaradorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi. 2022. 247 bet.
13. Islamkulov A.X. Budgetlararo mutanosiblikni ta'minlashda soliqlar tizimini takomillashtirish // i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T. 2020. – 71 b.
14. Ефремова Е.С. Погашение недоимки за счет дебиторской задолженности налогоплательщика: нужно ли вносить изменения в законодательство?// дис. канд. экон. наук. – М., 2019 г.
15. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
16. <https://www.imv.uz> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti
17. <http://www.soliq.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti
18. <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosinganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosingan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100